

Qozog'istonlik diplomat bilan uchrashuv

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutida Qozog'iston Respublikasining O'zbekiston Respublikasidagi elchixonasi maslahatchisi Kanat Nurpeisov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda o'zbek-qozoq munosabatlarining bugungi holati va uni rivojlantirishning istiqbollari, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro munosabatlardagi dolzarb mavzular yuzasidan fikr almashildi.

Tomonlar ta'kidlaganidek, bugungi kunda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlik barcha sohalarda faol rivojlanmoqda. Xususan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va boshqa yo'nalishlarda hamkorlik kengaymoqda va chuqurlashmoqda.

Shu bilan birga, SMTI va Qozog'istonning O'zbekistondagi diplomatik vakolatxonasi o'rtasidagi yaqin aloqalar ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga sezilarli hissa qo'shayotganligi ta'kidlandi.

Shuningdek, O'zbekiston va Qozog'istonning tahlilchi-ekspert va ilmiy-akademik doiralari o'rtasidagi aloqalarni chuqurlashtirish hamda 2019 yilga mo'ljallangan hamkorlikdagi qator maxsus loyihalar muhokama etildi.

